

**RAQAMLI AXBOROT MAKONIDA OMMAVIY AXBOROT
VOSITALARI FAOLIYATINING HUQUQIY JIHLTLARI**

Komilov Asadbek Maxsudbek o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

E-mail: sozananews@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada raqamli axborot makonida ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy jihatlari o'rganiladi. Global raqamlashtirish jarayonlari OAV faoliyatini tubdan o'zgartirib, axborot tarqatish tezligi, shakli va ta'sir doirasini kengaytirdi. Shu bilan birga, bu o'zgarishlar OAV faoliyatining huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda. Maqolada O'zbekiston Respublikasi va qator xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlil qilinib, raqamli axborot makonida so'z erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, yolg'on axborot tarqatish va mualliflik huquqlari bilan bog'liq muammolar yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, OAV faoliyatini raqamli davr talablari asosida tartibga soluvchi yondashuvlar ishlab chiqilishi lozimligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: raqamli media huquqi, ommaviy axborot vositalarining huquqiy maqomi, axborot xavfsizligi, raqamli erkinliklar, so'z va ifoda erkinligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, internet-jurnalistika, yolg'on axborotning huquqiy oqibatlari, xalqaro medialegislatsiya, O'zbekiston axborot qonunchiligi.

**ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СМИ В
ЦИФРОВОМ ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ**

Комилов Асадбек Махсудбек ўғли

Студент Ташкентского государственного юридического университета E-mail:

sozananews@gmail.com

Аннотация: в данной статье рассматриваются правовые аспекты деятельности средств массовой информации в цифровом информационном

пространстве. Глобальные процессы цифровизации кардинально изменили деятельность СМИ, расширив скорость распространения информации, её формы и сферы влияния. Вместе с тем эти изменения требуют пересмотра правовых основ функционирования СМИ. В статье проводится анализ законодательства Республики Узбекистан и ряда зарубежных стран, освещаются проблемы, связанные со свободой слова, неприкосновенностью частной жизни, распространением недостоверной информации и авторскими правами в цифровой среде. По результатам исследования обоснована необходимость выработки новых подходов к правовому регулированию деятельности СМИ с учетом требований цифровой эпохи.

Ключевые слова: право цифровых медиа, правовой статус средств массовой информации, информационная безопасность, цифровые свободы, свобода слова и выражения мнений, защита персональных данных, интернет-журналистика, правовые последствия распространения ложной информации, международное медиазаконодательство, информационное законодательство Узбекистана.

LEGAL ASPECTS OF MEDIA ACTIVITIES IN THE DIGITAL INFORMATION SPACE

Komilov Asadbek Maxsudbek o'g'li
Student of Tashkent state university of law
E-mail: sozananeews@gmail.com

Abstract: *this article examines the legal aspects of mass media activities within the digital information space. The global digitalization process has fundamentally transformed the operations of mass media, significantly increasing the speed, form, and scope of information dissemination. At the same time, these*

changes necessitate a reevaluation of the legal foundations governing media activities. The article analyzes the legislation of the Republic of Uzbekistan and several foreign countries, highlighting key issues such as freedom of speech, privacy rights, the spread of disinformation, and copyright protection in the digital context. Based on the research findings, the article substantiates the need for developing regulatory approaches that align media operations with the requirements of the digital era.

Keywords: *digital media law, legal status of mass media, information security, digital freedoms, freedom of speech and expression, protection of personal data, online journalism, legal implications of disinformation, international media legislation, information legislation of Uzbekistan.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Axborot zamonida jurnalist kasbining vazifasi ham, mohiyati ham o'zgarib bormoqda. Bir paytlar jurnalist axborot tayyorlovchi, uzatuvchi va odamlarni voqif qiluvchi shaxs edi. Endi esa u jarayonlar sur'atiga ta'sir o'tkazuvchi, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi va boshqaruvchi vazifasini bajara boshladi.

Internet tarmog'ining rivojlanishi va axborotning tezkor tarqalishi tufayli jurnalistning kichkina xatosi alohida bir shaxsning yoki butun boshli davlatning obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Katta nashrlarda e'lon qilingan noto'g'ri ma'lumotlar tufayli qimmatbaho qog'ozlar bozorida narxlar tushishi, jurnalist tomonidan yetkazilgan noxolis axborot sabab begunoh insonlarning jazolanishi, afsuski, tez-tez uchrab turibdi. Endi axborot ham shunchaki axborot emas, balki kuchli bir qurolga aylandiki, axborot xuruji, axborot urushi kabi atamalar paydo bo'ldi. Ushbu urushning asosiy askarlari esa jurnalistlar bo'lib qoldilar.

Soʻz va fikr erkinligi jurnalist kasbining ajralmas bir qismidir. Hokimiyatning, muassislarning, u yoki bu guruhning manfaatlariga xizmat qilish, jamiyat manfaatlari va shaxsning konstitutsion huquqlariga zid borish jurnalist etikasining buzilishidir.

Jurnalist axborotning toʻgʻriligi, haqqoniyligi va ishonchliligiga masʼul ekani hammaga maʼlum. Ammo nima uchundir zamonamiz media-maydonida “toza axborot”ni topish tobora murakkablashib bormoqda. Baʼzida tezkorlik, baʼzida shov-shuv va reyting ortidan quvish eng yomoni esa, maʼlum guruhlarining yoki shaxslarning manfaatini koʻzlab, axborotni yaxshi tekshirmay yoki atayin buzib tarqatish, buning ortidan keladigan ijtimoiy, huquqiy, ruhiy-maʼnaviy va boshqa oqibatlarni oʻylamaslik hollari koʻp uchramoqda.

Jurnalist insonning shaxsiy hayotiga daxl qilmasligi, uning shaʼni va obroʻsiga putur yetkazmasligi, qonun bilan belgilangan huquqlardan foydalangan holda aynan shu qonun bilan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni ham his qilishi, bir soʻz bilan aytganda, soʻzga masʼuliyat bilan munosabatda boʻlishi uning professionalizmini belgilovchi asosiy xususiyatlardan biridir. Shunday sharoitda quyidagi savollar tugʻiladi?

1. Jamiyat va fuqarolar manfaatlari birlamchi! Jurnalist buni qanchalik anglayapti? Chiroyli gapirish, tez axborot yetkazish, shov-shuv koʻtarish kabi tashvishlararo kasb etikasi masalasi chetda qolib ketmayaptimi? 2. Jurnalistning xato qilishga haqqi bormi? 3. Axborot maydonida kasb masʼuliyatining chegaralari qanday? 4. Jurnalistlar faoliyatini tartibga soluvchi axloq meʼyorlari yetarlimi? 5. Jurnalistlar oʻz huquq va burchlarini qanchalik biladilar?

Shuningdek, bloggerlar faoliyatini tartibga solish masalasi ham bor. Blogger oʻzi kim? Oʻz fikrini turli saytlarda xabar deb tarqatadigan va odamlarni ishontirib,

jamoatchilik fikrini boshqaradigan har qanday shaxs blogger deb atalaveradimi? Blogerning o‘zi tarqatayotgan axborotga nisbatan qanday mas’uliyati bor?

Internet olamida “jurnalist” tushunchasi qonunchilikda ta’riflanganidan ko‘ra kengroq ma’noda qo‘llanadi. Jurnalistlarga yaqin faoliyat bilan internetda bloggerlar, “xalq jurnalistlari” va turli saytlarga kontent yozib beruvchilar, ijtimoiy tarmoqda o‘quvchilari ko‘p bo‘lgan shaxslar ham shug‘ullanadi. Ular axborot tarqatishning huquqiy asoslarini biladimi?

Maqolada shu masalalarga zamonaviy voqelikdan kelib chiqib, huquqiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan baho berish maqsad qilingan.

2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Konstitutsiyasining 69-moddasida fuqarolik jamiyati institutlari qaysi subyektlar ekani haqida keltirilgan [1]. Bosh qomusimizning yangilangan versiyasida ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari tizimiga kiritilishi, ular faoliyatining takomillashuviga va mas’uliyatining kuchayishiga olib keladi. O‘zbekiston Respublikasining “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunining 9-moddasi jurnalist tekshiruv deb ataladi [2]. Unga ko‘ra, jurnalist axborot to‘plash va tekshiruv o‘tkazish huquqiga ega. Jurnalist o‘z tekshiruvlarining natijalarini ommaviy axborot vositalari orqali tarqatishi, ularni davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslarga ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin. Jurnalist tekshiruv davrida u ko‘lga kiritan materiallar va hujjatlar olib qo‘yilishi yoki ko‘zdan kechirilishi mumkin emas.

Biroq, milliy qonunchiligimizda bloggerlar ham xuddi jurnalistlar kabi tekshiruv olib bora olishini yoki bloggerlar jurnalistlarga oid barcha huquqlardan foydalana olishini nazarda tutuvchi qoida mavjud emas. Bundan kelib chiqadiki,

ushbu qonunda nazarda tutilgan qoidalar blogerlarga taalluqli emas. Ammo bugungi axborotlashgan davrda blogerlar uchun ham qonun ishlab chiqilishi kerak yoki qabul qilinmay qolgan Axborot kodeksini [3] amalga tatbiq etish lozim. Shunday bo'lsa-da, Konstitutsiyamizning 33-moddasiga muvofiq, har kim istalgan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega. [4] Bunday normalar hatto xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" (19-modda), [5] Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" (19-modda) [6] hamda "Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risida"gi Yevropa Konvensiyasida (10-modda) [7] o'z aksini topgan.

Shunday ekan, bloger ham o'zi istagan axborotni izlashi, olishi, chuqur o'rganishi va o'rganish natijalarini ommaga e'lon qilishi mumkin. Faqat amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasno [8]. Bunda u ham, jurnalist ham, jamiki OAV vakili va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari "Davlat sirlari to'g'risida"gi qonun normalariga [9] ham amal qilishi lozim.

Blogerlar o'zlari tomonidan tarqatilgan noqonuniy axborot/ma'lumotlar, da'vatlar, haqorat va tuhmat yuzasidan boshqa barcha uchun belgilangan umumiy normalar asosida javobgarlikka tortiladi. Masalan, bila turib yolg'on, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatganlik uchun bloger O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 40-moddasiga (tuhmat) binoan eng kam ish haqining yigirma baravaridan oltmish baravarigacha miqdorda jarima bilan jazolanishi mumkin [10]. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda "tuhmat"(40-modda), "haqorat qilish"(41-modda), "fuqarolarga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazuvchi ma'lumot tarqatish"(46-modda)ni nazarda tutuvchi ma'lumotlar uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Jinoyat kodeksida[11] esa “tuhmat” (139-modda), “haqorat qilish”(140-modda), “shaxsiy hayot daxlsizligini buzish”(141¹-modda), “urushni targ‘ib qilish”(150-modda), “milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni qo‘zg‘atish”(156-modda), “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish”(158-modda), “konstitutsiyaviy tuzumga xavf soluvchi ma’lumotlar tarqatish”(159-modda), “davlat sirlarini oshkor qilish”(162-modda), “yolg‘on axborot tarqatish”(244⁶-modda)ni ko‘zlovchi ma’lumotlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

“Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan, jurnalist aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga amal qilishi shart [12]. Binobarin, jurnalist shaxsning huquqlari va erkinliklarini, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi zarur.

“Aybsizlik prezumpsiyasi” xalqaro yuridik termin hisoblanib, u qonunchiligimizda ham o‘z aksini topgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasiga ko‘ra, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi[13].

Blogger o‘z blogida faqat o‘zi tomonidan yig‘ilgan/tayyorlangan materiallarni, video va suratlarni e‘lon qilishi, agar ular boshqalar tomonidan tayyorlangan bo‘lsa, muallifning ruxsatini olishi yoki manbasini aniq ko‘rsatishi lozim. Mualliflik huquqini buzganlik (boshqa muallif materiallarini o‘z nomidan o‘ziniki sifatida e‘lon qilganlik) uchun blogerlarga nisbatan fuqarolik tartibida da’vo qo‘zg‘atilishi hamda sud blogerga ushbu huquqni buzganlik oqibatida muallifga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini yuklashi mumkin [14].

Fuqarolik kodeksining 97- 100-, 1095- va 1097-moddalarida konfidensial axborotlar, tijorat siri, ishchanlik obro‘si yoki shaxsiy sirlarga putur yetkazuvchi axborotlarni tarqatishda cheklovlar mavjud [15]. Bunday axborotlar faqat shu axborot va unga tenglashtirilgan manbalarga huquqi bo‘lganlarning ruxsati bilangina e‘lon qilish mumkinligi belgilangan. Basharti, fuqaroning sha‘ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘sigga putur yetkazuvchi ma‘lumotlar ommaviy-axborot vositalarida tarqatilgan bo‘lsa, ayni shu ommaviy-axborot vositalarida raddiya berilishi lozim. Basharti, bunday ma‘lumotlar tashkilotdan olingan hujjatda uchrasa, bunday hujjat almashtirilishi yoki chaqirib olinishi kerak. Boshqa hollarda raddiya berish tartibi sud tomonidan belgilanadi. O‘zining sha‘ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘sigga putur yetkazuvchi ma‘lumotlar tarqatilgan fuqaro bunday ma‘lumotlar rad etilishi bilan bir qatorda ularni tarqatish oqibatida yetkazilgan zararlar va ma‘naviy ziyonning o‘rnini qoplashni talab qilishga haqlidir (1021-, 1022-moddalar) [16]. Ushbu moddadagi fuqaroning ishchanlik obro‘sini himoya qilish to‘g‘risidagi qoida yuridik shaxsning ishchanlik obro‘sini himoya etishga nisbatan ham tegishli yo‘sinda tatbiq etiladi.

Bundan tashqari, 2020-yil 5-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon mamlakatda raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda [17]. Ushbu strategiya doirasida ommaviy axborot vositalari faoliyatini raqamli axborot makoniga moslashtirish, ularning erkinligini ta‘minlash, shuningdek, kiberxavfsizlik va shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish borasida ham dolzarb vazifalar belgilab qo‘yilgan. Farmonda belgilanganidek,

davlat organlari faoliyatini ochiq va shaffof yuritish, axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish hamda OAVning zamonaviy raqamli platformalardagi ishtirokini kuchaytirish maqsad qilingan. Bu esa, raqamli axborot makonida OAV faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida OAV faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, jurnalistlarning raqamli savodxonligini oshirish va axborot xavfsizligini ta’minlash kabi yo‘nalishlarda ham chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan.

OAV uchun muhim jihatlardan biri – farmonda ochiq ma’lumotlar portallarining rivojlantirilishi va davlat axborot tizimlarining integratsiyasi orqali jurnalistlar va tahlilchilar uchun ishonchli axborot manbalarining kengaytirilishi hisoblanadi. Shu bilan birga, OAVning internet platformalaridagi faoliyati uchun yuridik kafolatlar mustahkamlanmoqda, bu esa ularning mustaqil va erkin faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytiradi.

“Chegara bilmas muxbirlar” (RSF) tashkilotining 2025 yilgi hisobotida 180 ta mamlakatdagi ommaviy axborot vositalarining holati beshta mezon asosida baholangandi [18]. Ulardan biri aynan huquqiy baza va qonunchilikning amalga tatbiq qilinishi edi. Ushbu davlatlarning 160 tasida OAV barqaror faoliyat yurita olmayapti yoki faqat juda qiyin sharoitda faoliyat yuritmoqda. Qariyb uchdan bir mamlakatda tahririyatlar iqtisodiy sabablar bilan yopilgan, ko‘p hollarda bunga rasmiy bosim sabab bo‘lgan. 46 davlatda OAV faqat bir necha boy shaxslar tomonidan nazorat qilinadi. Rossiya ham shular qatorida tilga olingan. O‘zbekiston ketma-ket ikkinchi yil 148-pog‘onada qolmoqda. Biroq ahvol 2024 yilga nisbatan yomonlashgan. Chunki o‘tgan yili O‘zbekiston OAV erkinligiga 37,27 ball berilgan bo‘lsa, bu yil 35,24 ball berilgan. Ommaviy axborot vositalarining

faoliyati yaxshi olib borilishi uchun qonunlar ishlashi kerak, yangi ishlab chiqarilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar esa ularni “bo‘g‘ib qo‘ymasligi kerak”.

2025-yilning 7-may kuni Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi tomonidan O‘zbekistonda media sohasini tartibga soluvchi yangi qonun loyihasi ishlab chiqildi [19]. Loyiha ham qonunchilikni liberallashtirishi, ham “tartibga solishdagi mavjud bo‘shliqlar”ni bartaraf etishi aytilmoqda. Veb-sayt egalari uchun O‘zbekistonda faoliyat yuritish shartlari belgilanadi. Qonunchilikka “inflyuyenser” tushunchasini kiritib, oddiy blogerlarga kamroq, inflyuyenser darajasiga chiqqanlarga esa ko‘proq mas’uliyat yuklash taklif etilmoqda. Loyihaming maqsadi – fuqarolarning onlayn platformalar va veb-saytlardan foydalanish sohasidagi huquqlarini qonun darajasida belgilash, ularni yolg‘on axborot, nafrat uyg‘otuvchi, zo‘ravonlik va shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi noqonuniy kontentlardan himoya qilishdan iborat. Unda onlayn platformalar sohasidagi amaldagi qonunchilik sezilarli liberallashtirilib, tartibga solishdagi mavjud bo‘shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan qator normalar nazarda tutilgan. Qonun loyihasida inflyuyenser va blogerlarning mas’uliyati ajratilib, blogerlar majburiyatlari sezilarli yengillashtirilmoqda.

Qonun loyihasidagi normalarning qabul qilinishi onlayn platformalar foydalanuvchilarining huquqlarini qonun darajasida mustahkamlash, internet tarmog‘ida axborot tarqatish tartiblari borasida huquqiy aniqlik va izchillikni ta’minlash, onlayn platformalar va veb-sayt egalari uchun O‘zbekistonda faoliyat yuritishning aniq shartlarini belgilash, ularning biznes modellari uchun shart-sharoitlarni aniq prognozlash imkoniyatini yaratish, axborot sohasi ishtirokchilari, jumladan, onlayn platformalar, blogerlar, inflyuyenserlar hamda sohani tartibga soluvchi davlat organlari o‘rtasida o‘zaro muloqot va konstruktiv hamkorlik uchun

huquqiy asoslarni takomillashtirish, internetdan foydalanish xavfsizligi darajasini oshirish, bolalar sog'ligiga xavf soluvchi axborotlardan himoya qilish bo'yicha aniq mexanizmlarni yaratish, foydalanuvchilar o'z sha'n va qadr-qimmatini kamsituvchi ma'lumotlardan himoyalanih borasida huquqiy kafolatlarga va zarur hollarda vakolatli organning ko'magidan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Axborot tarqatayotganda mas'uliyat, uni iste'mol qilayotganda esa, axborot savodxonligi zarurligini har bir shaxs anglashi kerak. Birgina misol, butun jamiyatni larzaga solgan kattaqo'rg'onlik ayol voqeasida taniqli blogerlar tomonidan ayolning farzandlari suratlari tarmoqqa yuklandi. Bu bilan bola huquqlari, shaxsiy daxlsizlik, voyaga yetmaganlarga oid axborotni tarqatish kabi bir nechta me'yorlar buzildi. Yaxshiki, vaqtida hushyorlik ko'rsatilib, suratlar olib tashlandi. Ammo bunga o'xshash vaziyat takrorlanmasligiga kafolat bormi? Yoki ijtimoiy tarmoq orqali turli sanksiyalanmagan tadbirlarga, ommaviy tartibsizlikka sabab bo'lishi mumkin bo'lgan yig'ilishlarga da'vat qilinishi, bunday tadbirlarni o'tkazishning belgilab qo'yilgan qoidalarini bilmasdan, har xil chaqiriqlar bilan chiqish holatlarini qanday baholash mumkin? Bu yerda mas'uliyat, javobgarlik kimda bo'ladi? Hozirda bizning qonunlarimizda ijtimoiy tarmoqlar orqali ommaviy tarzda noqonuniy xatti-harakatlarga chaqiriqlar e'lon qilganlik uchun alohida javobgarlik belgilanmagan.

Solishtirish uchun jahon tajribasiga murojaat etaylik. Koreya, Xitoy, Rossiya, Belarus Ukraina, Armaniston, Avstriya, Fransiya, Germaniya, Shvesiya kabi davlatlarda ommaviy tartibsizlikka, qonunga bo'ysunmaslikka, sanksiyalanmagan ommaviy tadbirlarga chaqirish va ularni uyushtirish, jamoat xavfsizligiga xavf soluvchi da'vatlar aks etgan materiallarni tayyorlash va tarqatish uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan. Masalan, Germaniyada

qonunga qarshi ishlarni sodir etishga chorlovchi bosma materiallarni tarqatganlik uchun 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki katta jarimalar belgilangan [20]. Xitoyda ommani qonunlar va huquqiy hujjatlarda aks etgan me'yorlarga bo'ysunmaslikka chaqirganlik uchun 3 yilgacha qamoq jazosi belgilangan [21].

O'zbekiston qonunchiligida bunday me'yorlar yo'q. Ammo bu ijtimoiy tarmoqlar orqali istalgan da'vatni qilish mumkin, buning uchun javobgarlikka tortilmaydi, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Bizda ijtimoiy tarmoq yoki OAV orqali ommaviy tartibsizliklar, qonunga bo'ysun maslikka chaqiruvlar uchun alohida javobgarlik belgilanmagan bo'lsa-da, bunday holatlar umumiy tartibda ko'rib chiqiladi hamda tegishli tarzda ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik belgilanishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan har bir shaxs - u jurnalist bo'ladimi, blogermi yo shunchaki oddiy foydalanuvchi o'ziga yarasha axloqiy va qonuniy me'yorlarni bilishi, ularga amal qilishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Ushbu tadqiqotda raqamli axborot makonida ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslarini tahlil qilish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Avvalo, normativ-huquqiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston Respublikasi axborot sohasi bo'yicha amaldagi qonunchilik hujjatlari, xususan, O'zbekiston Konstitutsiyasi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonun [22], "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonun [23], "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun [24], "Axborot olish erkinligi va kafolatlari to'g'risida"gi qonun [25], "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun [26], "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonun [27], "Jurnalistlik

faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonun [28] hamda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Fuqarolik kodeksi, shu bilan bir qatorda Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni o'rganildi. Shuningdek, bir qator xorijiy davlatlar – Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Xitoy va Rossiya, qolaversa AQSh kabi mamlakatlarning media qonunchilik tajribalari solishtirma-huquqiy tahlil asosida ko'rib chiqildi. Tadqiqotda doktrinal yondashuv (ilmiy-nazariy manbalarni o'rganish) asosida yetakchi huquqshunos olimlarning maqolalari, xalqaro tashkilotlarning (UNESCO, Freedom House, Reporters Without Borders) hisobotlari va media erkinligiga oid reytinglari o'rganildi. Bundan tashqari, kontent-tahlil usuli orqali raqamli OAVda tarqatilayotgan axborotlar, xususan yolg'on ma'lumotlar va ularning huquqiy oqibatlar bilan bog'liq holatlar o'rganildi. Mazkur metodologik yondashuvlar orqali raqamli muhitda OAV faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solishdagi mavjud muammolar aniqlanib, ular bo'yicha tegishli ilmiy-amaliy xulosalar chiqarildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / RESULTS AND DISCUSSION)

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bloggerlar va yangi media subyektlarining hamda turli xil media kanallarining huquqiy maqomi aniq belgilanmagan bo'lsa-da, amaliyotda ular OAVga tenglashtirilmagan holda faoliyat yuritmoqda. Bu esa ayrim holatlarda ular uchun huquqiy noaniqliklar keltirib chiqarmoqda. Raqamli axborot makonida OAV faoliyatini tartibga solishda mavjud qonunchilikning asosiy afzalligi – bu axborot olish va tarqatish erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlar asosida mustahkamlanganidir. Amaldagi qonunlar orqali an'anaviy

ommaviy axborot vositalari uchun huquqiy asoslar belgilangan bo'lsa-da, yangi raqamli platformalardagi media subyektlarining huquqiy maqomi hali to'liq yoritilmagan. O'zbekiston hukumati tomonidan ochiq ma'lumotlar portalining ishga tushirilishi, davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish, elektron axborot resurslariga kirishni soddalashtirish kabi tashabbuslar OAV uchun axborotga ochiq muhit yaratmoqda. Bu ijobiy holat raqamli jurnalistikani rivojlantirish uchun zamin yaratmoqda. Biroq, shunga qaramay, raqamli axborot muhitida soxta axborot, kiberjinoyatlar va shaxsiy ma'lumotlar buzilishi kabi xavf-xatarlarning ortib borayotgani bu sohada kiberxavfsizlik va axborot etikasini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatmoqda. Shuningdek, raqamli axborot makonida OAVning qonuniy himoyasi bilan bog'liq amaliyotda ayrim muammolar mavjud. Masalan, ayrim hollarda jurnalistlarning axborotga kirish huquqlari amaldagi qonunchilikka qaramay, to'sqinliklarga uchrashi holatlari qayd etilgan. Umuman olganda, O'zbekistonda raqamli axborot makonida OAV faoliyatining huquqiy asoslari mavjud bo'lib, ularni zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish, ayniqsa raqamli media subyektlarini aniq huquqiy maqomga ega qilish zarurati dolzarb bo'lib qolmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslari izchil takomillashtirilmoqda. Bu borada so'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" kabi qonunlar OAVning huquqiy maqomini belgilab berish va ularning erkin faoliyatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shunga qaramay, zamonaviy raqamli axborot makonining jadal rivojlanishi mavjud qonunchilikni xalqaro standartlar darajasiga moslashtirish, ayniqsa internet-jurnalistika va yangi media subyektlarining maqomini huquqiy jihatdan aniq belgilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Jurnalistlarning kasbiy faoliyati davomida axborotga boʻlgan erkin kirish huquqini kafolatlash, davlat organlari faoliyatining ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolarning axborotdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish – demokratik islohotlarning asosiy yoʻnalishlaridan biri sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda. Taʼbir joiz boʻlsa, yuqoridagi vazifalarni izchil hal qilish fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, inson huquqlarini taʼminlash va axborot erkinligini mustahkamlashda hal qiluvchi omil boʻladi. Shu boisdan, Oʻzbekistonda raqamli axborot makonida OAV faoliyatini huquqiy jihatdan zamonaviylashtirish, real mexanizmlarni joriy etish va xalqaro standartlarga mos keluvchi yondashuvni shakllantirish strategik dolzarb vazifa boʻlib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. “Jurnalistik faoliyatini himoya qilish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining qonuni 24.04.1997-yildagi 402-I-son URL: <https://lex.uz/docs/-9540>.
3. Axborot kodeksi loyihasi: Jamoatchilik nimadan norozi? Gazeta.uz, 2022-yil 28-dekabr URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/28/codex/>.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>.

5. Universal Declaration of Human Rights, General Assembly resolution 217 A - III, Paris, 10.12.1948 URL: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>.

6. Международный пакт о гражданских и политических правах, 2200 A (XXI), 16.12.1966.

7. European Convention on Human Rights and Fundamental Freedoms, 4.11.1950, General Assembly of the United Nations, URL: https://d3n8a8pro7vhm.cloudfront.net/medium/pages/79/attachments/original/1516353578/Convention_ENG.pdf?1516353578.

8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>.

9. “Davlat sirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 27.12.2024 yildagi O‘RQ-1016-son, URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-7282637>.

10. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, URL: <https://lex.uz/docs/-97664>.

11. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, URL: <https://lex.uz/docs/-111453>.

12. “Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni 24.04.1997-yildagi 402-I-son URL: <https://lex.uz/docs/-9540>.

13. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>.

14. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, URL: <https://lex.uz/docs/-180552>.

15. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, URL:
<https://lex.uz/docs/-180552>.

16. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, URL:
<https://lex.uz/docs/-180552>.

17. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, 5.10.2022-yildagi PF–6079-sonli, URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>.

18. RSF World Press Freedom Index 2025: economic fragility a leading threat to press freedom, May 2025. URL: https://rsf.org/en/rsf-world-press-freedom-index-2025-economic-fragility-leading-threat-press-freedom?year=2025&data_type=general.

19. Bloggerlarning majburiyatlari yengillashtirilmoqda, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovasion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo‘mitasi, 7.05.2025-yil.

20. German Criminal Code (Strafgesetzbuch – StGB), 2022, URL: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html.

21. Criminal Law of the People's Republic of China - CECC.gov, 1.07.1979, URL: <https://www.cecc.gov/resources/legal-provisions/criminal-law-of-the-peoples-republic-of-china>.

22. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 15.01.2007 yildagi O‘RQ-78-son, URL: <https://lex.uz/docs/-1106870>.

23. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 12.12.2002 yildagi 439-II-son, URL: <https://lex.uz/docs/-52268>.

24. “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 02.07.2019 yildagi O‘RQ-547-son, URL: <https://lex.uz/docs/-4396419>.

25. “Axborot olish erkinligi va kafolatlari to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 24.04.1997 yildagi 400-I-son, <https://lex.uz/docs/-1319>.

26. “Axborotlashtirish to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 11.12.2003 yildagi 560-II-son, <https://lex.uz/docs/-83472>.

27. “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42-son, <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>.

28. “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni 24.04.1997-yildagi 402-I-son URL: <https://lex.uz/docs/-9540>.